



## KEKSALARDA DIABET KASALLIGIDAN KELIB CHIQADIGAN STOMATOLOGIK KASALLIKLAR

*Mirvohidova N.M*

*EMU universiteti, Toshkent O'zbekiston*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada keksalarda qandli diabet kasalligining stomatologik kasalliklar rivojlanishiga ta'siri keng yoritilgan. Tadqiqot davomida gingivit, periodontit, kserostomiya, kariyes va og'iz shilliq qavatidagi atrofik o'zgarishlar kuzatildi. Maqolada 65 yoshdan oshgan diabet bilan og'rigan bemorlarning klinik holatlari tahlil qilinib, kasalliklarning patogenezi, klinik belgilari va davolash yondashuvlari batafsil yoritilgan. Olingan natijalar diabetning stomatologik sog'liqka kuchli ta'sirini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Diabet, keksalar, stomatologik kasalliklar, gingivit, periodontit, kserostomiya.

## СТОМАТОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ, ВОЗНИКАЮЩИЕ У ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ ИЗ-ЗА ДИАБЕТА

*Мирвохидова Н.М*

*EMU университет, Ташкент, Узбекистан*

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматривается влияние сахарного диабета на развитие стоматологических заболеваний у пожилых людей. В ходе исследования были выявлены гингивит, пародонтит, ксеростомия, кариес и атрофические изменения слизистой оболочки полости рта. В статье проанализированы клинические случаи пациентов старше 65 лет с сахарным диабетом, подробно описаны патогенез, клинические проявления и подходы к лечению заболеваний. Полученные результаты демонстрируют значительное влияние диабета на стоматологическое здоровье.



**Ключевые слова:** Диабет, пожилые люди, стоматологические заболевания, гингивит, пародонтит, ксеростомия.

## DENTAL DISEASES CAUSED BY DIABETES IN ELDERLY PATIENTS

**Mirvokhidova N.M**

*EMU University, Tashkent, Uzbekistan*

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the impact of diabetes mellitus on the development of dental diseases in elderly patients. The study revealed gingivitis, periodontitis, xerostomia, caries, and atrophic changes in the oral mucosa. Clinical cases of patients over 65 years with diabetes were analyzed, with a detailed description of pathogenesis, clinical manifestations, and treatment approaches. The results highlight the significant influence of diabetes on oral health in elderly individuals.

**Keywords:** Diabetes, elderly, dental diseases, gingivitis, periodontitis, xerostomia.

Qandli diabet — butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo‘lib, asosan uglevod, oqsil va yog‘ almashinushi jarayonlarini izdan chiqaradi. Diabet kasalligida kuzatiladigan metabolik o‘zgarishlar og‘iz bo‘shlig‘i to‘qimalariga ham bevosita ta’sir qiladi. Keksa yoshdagi bemorlarda glyukoza almashinuvining buzilishi, immunitetning susayishi, qon aylanishining sekinlashishi va shilliq qavatlarning himoya xususiyatlarining pasayishi natijasida turli stomatologik kasalliklar tez-tez uchraydi.

**Tadqiqot materiallari va usullari:** Tadqiqot davomida 65 yoshdan oshgan diabet bilan og‘rigan 80 nafar bemor klinik kuzatildi. Ularning og‘iz bo‘shlig‘i klinik tekshiruv, laborator tahlillar va rentgen diagnostika yordamida baholandi. Olingan ma’lumotlar natijalari tahlil qilinib, statistik jihatdan solishtirildi.

1-jadval

**Diabet bilan og‘rigan keksalarda stomatologik kasalliklarning uchrash chastotasi**



Kasallik turi	Bemorlar soni	Foizda
Gingivit	50	62.5%
Periodontit	45	56.2%
Kserostomiya	40	50.0%
Kariyes	55	68.7%
Og'iz shilliq	30	37.5%

qavat atrofiyasi

**Izoh:** Diabetda glyukoza almashinuvining buzilishi tufayli og'iz bo'shlig'iда qon aylanishi yomonlashadi, mikrotsirkulyatsiya izdan chiqadi va to'qimalarda regeneratsiya jarayoni sekinlashadi. Shuning uchun milk tezda shishadi, yallig'lanadi va kichkina mexanik ta'sirda ham qonash kuzatiladi. Periodontit rivojlanishida esa immunitetning pasayishi va yallig'lanishga moyillik asosiy rol o'ynaydi. Natijada diabetli keksalarda periodontal to'qimalarning shikastlanishi 2–3 barobar ko'proq uchraydi. Bu esa tishlarning mustahkamligini kamaytirib, alveolyar suyakning tezroq yemirilishiga olib keladi.

2-jadval

### Bemorlarning shikoyatlari

Asosiy shikoyatlar	Foizda
Og'iz qurishi	52.5%
Qonash	45.0%
Og'izda achishish va noxush	38.7%

hid

Tishlarning beqarorligi	33.7%
Og'iz shilliq qavatidagi	41.2%

noqulaylik

Izoh: Tadqiqotda bemorlarning asosiy shikoyati og'iz qurishi (52.5%) va tishlarning qonashi (45%) bo'ldi. Bu holatlar diabetning og'iz bo'shlig'i shilliq qavati va periodontal to'qimalarga kuchli ta'sirini ko'rsatadi.

3-jadval

### Davolashdan oldin va keyingi klinik ko'rsatkichlar



Ko'rsatkichlar	Davolashdan oldin	Davolashdan keyin
Gingival indeks	2.3	1.1
Qonash indeksi	1.9	0.8
Plak indeksi	2.5	1.2

Izoh: Davolashdan keyin gingival, qonash va plak indekslari deyarli 2 baravarga kamaygan. Bu professional stomatologik gigiyena va to'g'ri tanlangan davo usullarining samaradorligini tasdiqlaydi.

**Xulosa:** O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, keksalarda diabet kasalligi stomatologik kasalliklarning ko'payishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bemorlarning ko'pchiligidagi kariyes, gingivit va kserostomiya uchraydi. Davolash choralari natijasida klinik ko'rsatkichlar yaxshilangan bo'lsa-da, diabet mavjud sharoitda og'iz bo'shlig'i gigiyenasi va muntazam stomatologik kuzatuv juda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar:** 1. Lalla E., Papapanou P.N. Diabetes mellitus and periodontitis: a tale of two common interrelated diseases. *Nature Reviews Endocrinology*. 2011;7(12):738–748.

2. Preshaw P.M., Alba A.L., Herrera D. Periodontitis and diabetes: a two-way relationship. *Diabetologia*. 2012;55(1):21–31.

3. Mealey B.L., Oates T.W. Diabetes mellitus and periodontal diseases. *Journal of Periodontology*. 2006;77(8):1289–1303.